

**OyguL XAMDAMOVA,**

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali "O'zbek tili va gumanitar fanlar" kafedrasida assistenti*

*E-mail: oygul.hamdamova.85@mail.ru*

*Tel.: +998945249668*

*TATU Farg'ona filiali xorijiy tillar kafedrasida mudiri, PhD. G.K. Obidova taqrizi asosida*

## HADIS MATNLARI LEKSIK QATLAMI VA ULARNING LEEKSIK-SEMANTIK TAXLILI

Аннотация

Ushbu maqolada islom dinining asosiy manba'laridan biri bo'lgan hadis matnlarining lingvistik jihatlariaga e'tibor berilib, bunda hadis matnlari leksik qatlamlamida eng faol qo'llanadigan leksik birliklarning o'zbek tilidagi izohi va talqini, ma'nolariga taxlil qilinadi. Hadis matnlarida leksik qatlamida ko'zga ko'rinadigan eng muhim xususiyatlardan biri – islom dini tushunchalarini anglatuvchi birliklardir. Jumladan, Allohga hamdu sano, payg'ambarga salavat aytishda qo'llaniladigan so'z va jumlar, Qur'on oyatlaridan olingan birliklardan iboratdir. Maqolada, leksemalar qo'llanilgan namunalar bilan dalillanadi.

**Kalit so'zlar:** Hadis, leksik qatlam, O'zbek tilining izohli lug'ati, stilistik qatlam, semantik guruh, payg'ambarlar nomlari, muqaddas kitob va joy nomlari.

## ЛЕКСИЧЕСКИЕ СЛОИ ТЕКСТА ХАДИСОВ И ИХ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА

Аннотация

В данной статье уделено внимание лингвистическим аспектам текстов хадисов, являющихся одним из основных источников исламской религии, а также объяснению и толкованию наиболее активно используемых лексических единиц в лексическом пласте текстов хадисов в исламской религии. Анализируются узбекские языки и их значения. Одной из важнейших особенностей, видимых в лексическом слое текстов хадисов, являются единицы, репрезентирующие понятия исламской религии. Например, слова и предложения, используемые для восхваления Бога и благословения Пророка, состоят из единиц, взятых из стихов Корана. В статье идеи использования лексем подтверждаются текстами хадисов.

**Ключевые слова:** Хадисы, лексический пласт, толковый словарь узбекского языка, стилистический слой, семантическая группа, имена пророков, священная книга и топонимы.

## LEXICAL LAYERS OF HADITH TEXTS AND THEIR LEXICAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS

Annotation

In this article, attention is paid to the linguistic aspects of the hadith texts, which are one of the main sources of the Islamic religion, and the explanation and interpretation of the most actively used lexical units in the lexical layer of the hadith texts in the Uzbek language and their meanings are analyzed. One of the most important features visible in the lexical layer of the hadith texts is the units that represent the concepts of the Islamic religion. For example, the words and sentences used to praise God and bless the prophet are made up of units taken from the verses of the Qur'an. In the article, the ideas using lexemes are proved by hadith texts.

**Key words:** Hadith, lexical layer, explanatory dictionary of the Uzbek language, stylistic layer, semantic group, names of prophets, holy book and place names.

**Kirish.** Hadis matnlarining lug'at tarkibidagi asosiy elementlar diniy tushunchalarni anglatuvchi so'zlardir. Ular, odatda, Allohga hamdu sano, payg'ambarga salavat aytishda qo'llaniladigan so'z va jumlar, Qur'on oyatlaridan olingan birliklardan iboratdir.

Bu lug'aviy birliklarning leksik-semantik tahlilini berishda "O'zbek tilining izohli lug'ati" ni tayanch manba qilib olindi. Chunki xalqimiz o'rtasida bir qadar ommalashgan, ko'pchilikka tanish bo'lgan, ma'nolarida muayyan siljishlar yuz bergan leksemalar kiritilgan shu manba aynan hadis matnlari leksikasiga oid kuzatishlar olib borishda eng ishonchli manba sanaladi. Unda maxsus din. stilistik belgisi bilan berilgan so'zlar soni 256 tani tashkil etadi. Jumladan, I jildda – 45 ta, II jildda – 61 ta, III jildda – 77 ta, IV jildda – 43 ta, V jildda – 30 ta. Bu birliklar Izohli lug'atdagi umumiy so'zlar sonining 0,0032 % ini tashkil etadi. Bu ham bir fakt. Ammo gap diniy tushunchalarni anglatadigan so'zlarning ko'p yoki ozligida emas. Gap ularning o'zbek tili leksik tizimida va hadis matnlarida alohida stilistik qatlam sifatida e'tirof etilishi va ularning qo'llanishida funksional alomatlarining mavjudligida.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** O'zbek tilshunosligida diniy matnlarni tadqiq etish N.Uluqov, T.Yuldashev, M.Galiyeva, Sh. Sultonov kabi olimlarimiz tomonidan o'rganib chiqildi va biz ham ushbu maqolamizda, keyinroq ilmiy tadqiqotlarimizda hadislarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganib chiqishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik. Hadis matnlaridagi faol qo'llanadigan birliklarning leksik-semantik - masalaga ana shu nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, ushbu elementlarning hadis matnlari doirasida chegaralanganligini o'zi muayyan ilmiy qimmatga ega ekanligini guvohi bo'lamiz. Bu birliklar aynan diniy matnlar, jumladan, hadis matnla doirasida qo'llanilishi ularning funksional statusini belgilab beradi va shunga asosan ularni semantik guruhlariga ajratib tahlil etish ehtiyojini paydo qiladi.

**Natijalar va muhokamalar.** Hadis matnlarida qo'llanilgan so'zlarni leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra bir necha guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin. Bu so'zlar din, shariat, diniy ijtimoiy nufuz, amal, joy, ma'nolarini shuningdek g'ayb dunyosi bilan bog'liq mavhum tushunchalarni ifodalaydi. Jumladan:

1. Yaratgan nomlari. Yaratganni ifoda etuvchi leksik birliklardan Alloh so'zi keng tarqalgan bo'lib, u arab tildagi so'zdir. "ALLOH (arab. "al-iloh" - ilohiy kuch, turkiy xalqlarda, xususan, o'zbeklarda - Tangri, fors-toj. Xudo, Yazid), Alloh – islom dinida butun mavjudotni yaratgan oliy ilohiy kuch; xudoning nomi. Odatda A.ga Taolo (ulug', oliy), Taboraka va taolo, Jalla jalallahu, karim,buzurg, Parvardigori olam kabi sifatlar qo'shib aytiladi. Islom diniga binoan A. -yakkayu-yagona xudo, olamning yaratuvchisi va qiyomat kunining egasi" [1] . Alloh so'zi esa arab tiliga xos bo'lib, islom dini uchungina xosligi bilan xudo so'zidan farqlanadi. Taolo so'zi ulug'likni, ulug'vorlikni ifodalovchi shakl bo'lib, Alloh so'zi bilan qo'shib aytilishi natijasida hurmat ma'nosini ham anglatadi:

Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sallollohu alayhi vasallam qachon yomg’irni ko’rsalar: “Allohim! Navfli yomg’ir (qilgin)”, der edilar. (Buxoriy va Nasoiy rivoyat qilganlar); Abu Muso roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: “Nabiy sallollohu alayhi vasallam: “Alloh zikr qiinadigan uy bilan Alloh zikr qlinmaydigan uy huddi tirik bilan o’lik misoliga o’xshaydi”, dedilar” (Muslim rivoyati).

Xudo so’zi “diniy tushunchaga ko’ra, xususan, islom diniga ko’ra, butun mavjudotni, butun olamni yaratgan va uni boshqaruvchi oliy ilohiy kuch, har qanday dinning e’tiqod asosi” (O’TIL, 4- jild, 420-bet) ma’nosini anglatadi:

Rasululloh sallollohu alayhi vasallam aytganlar: “Qo’li bilan tili bilan o’zgalarga ozor bermagn kishi musulmondur. Olloh taolo man’etgan narsalardan qaytgan kishi Xudo yo’lida jehod qilgan kishidir” (Buxoriy rivoyati);

Haq so’zi. Allohning 99 ismidan biri bo’lib, “Haq. O’zgaras, sobit zot. Haqni yuzaga chiqaruvchi zot” [8]. “Haq (“asl”, “haqiqiy”, “haqiqat”) – voqelik haqida bildirilgan fikr voqelikka to’g’ri kelishini anglatuvchi termin; fikr- mulohazalarning voqelikka mos kelishi sidq - termini bilan ifodalangan. Bu ikki termin ko’pincha sinonim sifatida ishlatilgan, biroq qo’llaniladigan joyiga qarab ularni farqlashgan: H. termini din yoki mazhabga; ishontirish (akdda) uchun ishlatiladi. Bunda uning ziddi - botil istilohidir. Sidq - termini fikr (hukm), mulohaza (qavl)ni ta’riflashda qo’llanilib, uning ziddi – kizb”: Haq taolo oyati karimalaridan birida: “Ularning hidoyatini (iymonlarini) ziyoda qildik...” (Buxoriydan).

Robb so’zi. Rab (a.-Alloh; xudo; janob; hukmdor; xo’jayin) din. Xudo, tangri, parvardigor. Yo robbim!- Kimsan, Robbing kim?- dedi, Munkarnakir. –usta Turdiali bo’laman, A.Qahhor, Qabrdan tovush”; Abu Hurayra roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: “Nabiy sallollohu alayhi vasallam onalarining qabrini ziyorat qildilar. O’zlari yig’ladilar, atrofdagilarni ham yig’latdilar. Kuni: “Robbimdan unga (onmaga) istig’for aytishga izn so’radim, izn berilmadi. Uning qabrini ziyorat qilishga izn so’radim. Izn berildi. Bas, qabrlarni ziyorat qilinglar. Chunki u oxiatni eslatadi”, – dedilar” (Muslim, Abu dovud, nasoiy rivoyat qilganlar);

Rahmon so’zi. “ar-RAHMON (Mehribon) - Allohning ismlaridan biri (q. al-Asmo al-husno), odatda bismilloh ar-Rahmonir-Rahim (Rahimli) shaklida ishlatiladi. Har ikki ism Allohning eng asosiy sifatlaridan bo’lib, insonlarga Qiyomat kuni Allohning marhamat ko’rsatishi, mehribonlik qilishini anglatadi” .

Abu Hurayra roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi. “Nabiy sallollohu alayhi vasallam: “ Qay bir kishi halol-pokdan sadaqa qilsa, Alloh halol-pokdan boshqani qabul ham qilmaydi, albatta, Rahmon u(sadaqa)ni o’ng qo’li bilan qabul qilib oladi. Agar u bir dona xurmo bo’lsa ham Rahmonning kaftida o’sadi...” (Buxoriy, Muslim, Nasoiy rivoyat qilgan).

2. Payg’ambarlar nomlari. Odam Safiyulloh, Ibrohim Halilulloh, hazrati Ismoil alayhissalom, Iso alayhissalom, Hazrati Iso, Hazrati Yahyo, Hazrati Idris, Horun alayhissalom, Muso alayhissalom, Yunus alayhissalom kabi:

...Rasuli akram alayhissalom shunday marxamat qilganlar: “Men sizlarga ismi A’zami qaysi ekanligini aytaymi? Bu Yunusning: “La ilaha illa anta subhaanaka inniy kuntu minaz zolimiyn”, deb qilgan duosidir (Hokim rivoyat qilgan);

Abu Hurayra roziyallohu anhu bunday deydilar: “ Rasululloh: “Har qanday chaqaloqni tug’ilayotgan paytida shayton chimchilaydi, shundan chaqaloq chinqirib yig’laydi, ammo Maryam va uning o’lini chimchilay olmagan”,- dedilar...”

3. Payg’ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi va sallamni ifodalovchi va u zotga xos so’z hamda birikmalar: Rasululloh sallollohu alayhi vasallam, Nabiy sallollohu alayhi vasallam, Allohning Rasuli:

Muoviya roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: “Nabiy sallollohu alayhi vasallam: “Alloh kimga yaxshilikni iroda qilsa, uni dinda faqih qilib qo’yadi...”(Buxoriydan); Abu Hurayra roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: “Nabiy sallollohu alayhi vasallam: “ Kim ilm talab qilish yo’liga tushsa, Alloh unga jannatning yo’lini osonlashtiradi...”(Buxoriydan);

Keltirilgan leksik birliklardan habib so’zi arab tilidan olingan bo’lib (O’TIL, 5-jild, 467-bet), “do’st”, “sevikli inson” ma’nolarini anglatadi. Muhammad alayhissalomning Allohning do’sti sifatida e’tirof etilishi ushbu sifatning ishlatilishiga sabab bo’lgan. Amin so’zi esa “ishonchli”a ma’nosini bildiradi. “Abul” arablar tomonidan farzandning otasiga nisbatan ishlatiladigan nom bo’lib, Payg’ambarimizning katta o’g’illarining ismi Qosim bo’lganligi sababli Abul Qosim “Qosimning otasi” degan ma’noni anglatadi: Abu – arabchada “ota” degan so’zning izofa holatidagi shakli bo’lib, musulmon xalqlarida kunyalarning tarkibiy qismini tashkil etadi. (DAI, 18-bet) Kunya – arablarda shaxslarning hurmat yuzasidan nomlanishi. U abu – ota, ummu – ona, ibn – o’g’li, bint – qizi so’zlari vositasida aks etadi... Payg’ambarimizning kunyalari Abul Qosim – ya’ni Qosimning otasi edi (DAI, 90-bet).

4. Muqaddas kitoblar nomlari va ularga oid so’zlar: Tavrot, Injil, Qur’on, Qur’oni karim, sura, Toho surasi, oyat, qiroat...

Usmon roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: “ Nabiy sallollohu alayhi vasallam: “Sizlarning yaxshilaringiz Qur’oni o’rganganlaringiz va o’rgatganlaringizdir”, dedilar” (Buxoriy, Abu Dovud, Termiziy);

Alloh taoloning qavli: “(Ey Habibim) Agar (so’zlayotgan) bo’lsangizlar, Tavrotni olib kelib tilovat qilingizlar, deb aytil!” (Buxoriydan)

5. Ibodat va diniy amallarga oid leksemalar: ibodat, toat-ibodat, takbir, namoz, rakat, ruku’, sajda, juma namozi, nafl namozi, iyd, iyd namozi, tavof, ziyorat, g’usl, tahorat, ro’za, fотиha, hijrat, xutba, mahr, halol, harom, gunoh, farz, vojib, haj, umra.

Jobir roziyallohudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sallollohu alayhi vasallam: “Hajji mabrurning jannatdan boshqa mukofoti yo’q”, dedilar”.(Ahmad va Hokim rivoyati); Ibn Abbos roziyallohu anhu: “Allohning Kitobida: “Umra hajning egizagidir, Alloh yo’lida umra va haj qilingiz!” deyilgan”,- dedilar” (Buxoriydan);

6. Dinga oid shaxs nomlari: hoji, sahoba, imom, xatib, obid, ummat, mo’min, mo’mina, musulmon, solih, soliha, avliyolar, taqvolik olimlar, amiral- mo’minin, kofir, murtad, mushrik, munofiq: Anas ibn Molikdan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sallollohu alayhi vasallam: “Ilm talab qilish har bir musulmon zimmasiga yuklangan farzdir”, dedilar”(Imom Ahmad, ibn Moja);

Abu Hurayra roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: “Nabiy sallollohu alayhi vasallam: “Mufarridlar o’zib kettilar”, dedilar. “Mufarridlar kim, ey Allohning Rasuli?”deyishdi. “Allohni ko’p zikr qiladigan erkak va ayollar”, dedilar. (“Ruhiy tarbiya”, 128); Abu Hurayra roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: “Nabiy sallollohu alayhi vasallam: “Er kechasi o’z axlini uyg’otib, ikkovlari bir bo’lib namoz o’qisalar, zokir va zokiralar qatoriga yoziladilar”, dedilar” (“Hadis va hayot”, 104-b) Rasululloh sallollohu alayhi vasallam aytganlar: “Ansorlarni yaxshi ko’rmoq iymon alomatidir, yomon ko’rmoqlik munofiqlik belgisidir”.(Buxoriy); Janob Rasululloh sallollohu alayhi vasallam: “Munofiqning uchta alomati bor: so’zlasa yolg’on so’zlar; va’da qilsa, bajarmas; omonatga xiyonat qilur”,- deganlar.

7. Oxirat bilan bog’liq nomlar: oxirzamon, oxirat, qiyomat kuni, jannat, do’zax, dunyo va oxirat: Abu Hurayra roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: “Nabiy sallollohu alayhi vasallam: “Kim ilm talab qilish yo’liga tushsa, Alloh unga jannatning yo’lini yengillashtiradi” (Muslimdan).

8. Chuqur diniy e'tiqod, valiylik bilan bog'liq so'z va birikmalar: botiniy ahvol, ruhoniylar sifatlar, ixlos, oliy aloqalar, ulug' sifatlar, avliyo, botiniy tavajjuh, munojot qilmoq, tahajjud, xushu' qilmoq, Allohning rahmati:

“Abu Bakr (r.a.) namozi, ro'zasi va sadaqasi bilan qolgan Ashobdan Afzal ko'rilgani yo'q, balki qalbidagi imoni tufayli mukarram bo'ldi” (“Ichingdagi ichingdadaur”, 248-bet); Shaddod ibn Avs roziyallohu anhudan rivoyat qilindi: “Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: “Yerdagi eng avval ko'tariladigan narsa xushu'dir”, dedilar”(Buxoriy rivoyati)

9. Islom dini bog'liq joy va sana (kun,oy) nomlari: Baytulloh, masjidul Harom, masjidul Aqso: Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilindi: “Rasululloh sallohu alayhi vasallam dedilar: “Arafa kuni Alloh osmonga tushadi va ular ila farishtalarga maqtanib: “Bandalarimga qaranglar! Turli joylardan sochlari to'zigan, g'uborga belangan, oftobda qolgan holda huzurimga keldilar. Sizlarni guvoh qilmanki, albatta, Men ularning gunohlarini kechdim”, – deydi” (Buxoriydan);

**Xulosa.** Bugungi kun zamonaviy o'zbek tilshunosligi oldida turgan asosiy vazifalardan biri- muqaddas manba'larimizdan biri bo'lgan hadislarni ilmiy tomondan taqqiq qilishdir. Demak, hadis matnlari - islom dinining asosiy manbalaridan biri bo'lganligi bois, unda islom diniga oid leksik birliklar hadis matnlarining asosiy tushunchalarini tashkil qilganini kuzatamiz.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyayev Sh., Yangi O'zbekiston taraqqiyot startegiyasi: -Toshkent, “O'zbekiston”, 2022 y.
2. Uluqov N.M. O'zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi: filol.fan.nomzodi.....diss.avtoref. : -Toshkent, 1997-y.
3. M o'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol. fanl. dokt. diss. avtoref. – Toshkent, 2000-y.
4. Hakimov M. O'zbek pragmalingsvistikasi asoslari. –Toshkent, 2013.
5. Hadis (sharif), I, II, III, IV kitoblari.: -Toshkent.1989-92 y.
6. Imom Ismoil Buxoriy Al-adab Al-Mufrad.: -T.1990 y.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Hadis va hayot,7-juz,Hilol-nashr:-T.2020.
8. Yusupova Sh. Diniy matn pragmatikasi,monografiya, “Classic”:-Farg'ona,2020-y.
9. Islom Ensiklopediyasi, www.ziyouz.com kutubxonasi
10. <https://islom.uz/maqola/149>